



Mayor's Office of
Immigrant Affairs



**Do'stingiz yoki oila a'zongiz
Immigratsiya va bojxona
nazorati xizmati (Immigration
and Customs Enforcement,
ICE) yoki Immigratsiya
xizmati tomonidan ushlansa,
nima qilish kerak**

Savol-javoblar

Do'stingiz yoki oila a'zongiz ushlanganini quyidagi manzildagi ICE onlayn lokatori orqali tekshirib ko'rishingiz mumkin: locator.ice.gov

Lokatordan foydalanish uchun sizga do'stingiz yoki oila a'zongizning quyidagi ma'lumotlari kerak bo'ladi:

- Tug'ilgan mamlakati **VA** "A-raqami" (A number) **YOKI**
- Tug'ilgan mamlakati, ismi, familiyasi va tug'ilgan sanasi (Eslatma: ism to'g'ri yozilgan bo'lishi kerak).



MASLAHAT: "A raqam" – bu ko'pchilik immigratsiya hujjatlarida uchraydigan 8 yoki 9 xonali identifikatsiya raqami. U A harfidan keyin yoziladi. Bu raqamni ushlangan shaxsning identifikatsiya bilaguzugidan ham topish mumkin. Masalan: A 000-000-000

Agar sizda ularning A raqami bo'lmasa, do'stingiz yoki oila a'zongizdan xabar olganingizda so'rab oling.



1-800-354-0365

Dushanba – juma 9AM – 6PM

Siz tanlagan tilda tarjima xizmati mavjud.

Immigratsiya bo'yicha bepul va maxfiy yuridik yordam olish uchun immigrant nyu-yorkliklar Immigratsiya ishlari bo'yicha shahar hokimligi boshqarmasining (Mayor's Office of Immigrant Affairs, MOIA) Immigratsiya huquqiy yordam ishonch telefoni raqamiga qo'ng'iroq qilishlari mumkin.



311 raqamiga qo'ng'iroq qiling

**“Immigration” (Immigratsiya)
deb ayting**

Tarjima xizmati mavjud.



Immigratsiya qonunchiligi murakkab. Immigratsiya bo'yicha yolg'on va'dalar berishi mumkin bo'lgan huquqiy firibgarliklar yoki soxta provayderlardan ehtiyot bo'ling.

Unutmang: Litsenziyalı advokat bo'lmagan davlat notariusi sizning nomingizdan immigratsiya hujjatlarini to'ldira olmaydi yoki topshira olmaydi. Shuningdek, ular sizga huquqiy maslahat ham bermasligi kerak.

**Do'stim yoki oilam
a'zosi ICE yoki
Immigratsiya
xizmati tomonidan
ushlandi. Ularni
qanday topaman?**



Agar ICE yoki Immigratsiya xizmati do'stingiz yoki oila a'zongizni Nyu-York shahrida yoki uning atrofida ushlasa, ularning ishi Manhattan'dagi ICE idorasida rasmiylashtiriladi. Bu jarayon odatda bir kun davom etadi. Shundan so'ng ular vaqtinchalik saqlash hibsxonasiga o'tkaziladi. Odatda, hibsxona Nyu-York yoki New Jersey'da bo'ladi. Ba'zan odamlar boshqa shtatlardagi immigratsiya hibsxonalariga joylashtirilishi mumkin. Bunday hibsxonalar qamoqxonada yoki federal binoda bo'lishi mumkin.




**Do'stim yoki oila
a'zomni ko'rgani
borish xavfli
emasmi? Ular
bilan qanday
ko'rishsam va
pul jo'natsam
bo'ladi?**





Eslatma: Agar o'z ishingiz yoki immigratsion maqomingiz bilan bog'liq muammo sababli do'stingiz yoki oila a'zongizni ko'rgani borish sizni xavf ostiga qo'yadi deb xavotirlansangiz, *advokat bilan maslahatlashing.*

Uchrashuvga borishdan oldin:



Har bir hibsonaning shaxsni tasdiqlashga oid talablarini hamda ma'lumotlar tekshiruvini zarurligini ko'rib chiqing.



Batafsil ma'lumotni www.ice.gov/detention-facilities veb-saytidan topishingiz mumkin. Ma'lumotni tasdiqlash uchun hibsonaga qo'ng'iroq qilishingiz kerak bo'lishi mumkin.



Siz do'stingiz yoki oila a'zongizning tashrif buyuruvchilar ro'yxatiga kiritilgan bo'lishingiz shart va faqat muassasa belgilagan kun va vaqtlarda uchrashuvga borishingiz mumkin.

**Do'stim yoki
oila a'zom
qanday qilib
advokat yollashi
mumkin?**





AQSH hukumati deportatsiya xavfi ostidagi immigrantrlarni advokat bilan ta'minlamaydi.



Do'stingizga yoki oila a'zongizga Nyu-York Immigrant oilalarni birlashtirish loyihasi (New York Immigrant Family Unity Project, NYIFUP) tomonidan advokat tayinlanishi mumkin.



NYIFUP – ICE yoki Immigratsiya xizmati tomonidan ushlangan va immigratsiya sudida ishi ko'rilayotgan Nyu-York shahri aholisini bepul, yuqori malakali advokatlar bilan ta'minlaydigan shahar dasturi.

Ushbu dastur haqida batafsil ma'lumot olish uchun keyingi sahifani oching.



NYIFUP talablarga javob beradigan shaxslarni bepul advokat bilan ta'minlaydi. Bu huquqqa ega bo'lish uchun shaxs **hibsda saqlanayotgan bo'lishi va quyidagi talablarga javob berishi kerak:**



Deportatsiya ishi Varick St. Immigratsiya sudida (Varick St. Immigration Court) ko'rib chiqilayotgan bo'lishi kerak. Agar ish New Jersey sudida ko'rilayotgan bo'lsa, shaxs Nyu-York shahri fuqarosi (rezidenti) bo'lishi;



Qo'lga olingan shaxsning advokati yo'q bo'lishi;



Bu mazkur ish bo'yicha immigratsiya sudidagi birinchi eshituv bo'lishi; va



Oilaning umumiy daromadi Federal qashshoqlik mezonining 200% idan past bo'lishi kerak.

Advokat birinchi asosiy taqvim eshituvidan so'ng qisqa muddatda tayinlanishi mumkin.



Ayrim shaxslar ushbu dastur orqali advokat bilan TA'MINLANMASLIGI mumkin.

E'tibor bering, ushbu dastur immigratsiya sudida immigratsiya sudyasi tomonidan ishi ko'rib chiqilayotgan shaxslarni advokat bilan ta'minlaydi. Ular deportatsiya qilish to'g'risida qarori allaqachon chiqqan yoki ko'rib chiqilayotgan ishi bo'lmagan shaxslarning vakili sifatida qatnasha olmaydi.



1-800-354-0365

Dushanba – juma 9AM – 6PM

Siz tanlagan tilda tarjima xizmati mavjud.

Agar do'stingiz yoki oila a'zongiz NYIFUP dasturi talablariga mos kelmasa, **MOIA Immigratsiya huquqiy yordam ishonch telefoni raqamiga** qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.

Agar do'stingiz yoki oila a'zongiz oldin federal immigratsiya xodimlari bilan aloqaga chiqqan va deportatsiya qilinishiga oid qaror chiqarilgan bo'lsa yoki Nyu-York yoxud New Jersey shtatidan boshqa joyga o'tkazilayotgan bo'lsa, zudlik bilan advokatga murojaat qiling.

Agar yuqoridagilardan birortasi sodir bo'lgan bo'lsa, do'stingiz yoki oila a'zongiz tezkor deportatsiya qilinishi va zudlik bilan immigratsiya masalalari bo'yicha huquqiy yordamga muhtoj bo'lishi mumkin. Agar ularda avvalgi immigratsiya ishlari bo'yicha sud jarayonlari bo'lgan bo'lsa, ushbu jarayonlarga oid barcha hujjatlarni olish kerak.



**Birinchi sud
majlisi qachon
bo'lishini qanday
bilsak bo'ladi?**






1-800-898-7180

Immigratsiya sudi ma'lumot liniyasiga qo'ng'iroq qilib, sud majlisi qachon va qayerda bo'lishini bilib olishingiz mumkin.


Bu avtomatlashtirilgan axborot tizimi.

Qo'ng'iroqqa hech kim javob bermaydi. Tizim faqat ingliz va ispan tillarida ma'lumot beradi.


Ingliz tilini tanlash
uchun 1 ni bosing
Ispan tilini tanlash
uchun 2 ni bosing



"A raqami"ni
kiriting yoki ayting.
Avtomatlashtirilgan
tizim A# raqamini
takrorlaydi; tasdiqlash
uchun 1 ni bosing.



Tasdiqlash uchun
1 ni bosing



Avtomatlashtirilgan
tizim do'stingiz yoki
oila a'zongizning ismini
harflab aytadi.



Keyingi sud
eshituv sanasi
uchun 1 ni bosing



Eslatma: Agar ular tizimda ko'rinmagan bo'lsa, sud sanasi belgilanmagan bo'lsa



Avvalgi qarorlarni tekshirish uchun 3 ni bosing.

Agar unda sud "mamlakatdan chiqarish to'g'risida qaror chiqargan" (ordered removal) deb yozilgan bo'lsa, bu do'stingiz yoki oila a'zongiz uchun yangi sud eshituvi o'tkazilmasligini bildiradi.



Shuningdek, ingliz va ispan tillarida mavjud ushbu veb-saytga A raqamini kiritish orqali sud ma'lumotlarini onlayn qidirishingiz ham mumkin.

<https://acis.eoir.justice.gov/en/>

**Ularni qancha
vaqt ushlab
turishadi?**



Bu savolga aniq javob berish qiyin, chunki bu har bir holatning o'ziga bog'liq. Do'stingiz yoki oila a'zongiz ishi yakunlanmaguncha yoxud sudya unga garov tayinlamaguncha hibsdan saqlanadi.



Hamma uchun ham garov imkoniyati berilavermaydi. Garov eshituvida immigratsiya sudyasi, agar shaxs (yoki u bilgan ishonchli odam) garov pulini to'lay olsa, uni immigratsion hibsdan ozod qilish mumkinmi yoki yo'qligini hal qiladi.



Immigratsion garov (immigration bond) – bu qo'lga olingan shaxsni ozod qilish va uning ozodlik shartlarini bajarishga va'da berishi evaziga AQSH hukumatiga to'lanadigan to'lov bo'lib, bu shartlar orasida sudyaning ko'rib chiqilayotgan immigratsiya ishi bo'yicha qo'ygan talablari ham bo'lishi mumkin.

Hukumat do'stingiz yoki oila a'zongizni garov evaziga ozod etish bo'yicha sud majlisida qatnashish huquqiga ega emas deb hisoblagan taqdirda ham, ularning ushlab turilishiga e'tiroz bildirishning boshqa yo'llari bo'lishi mumkin. Buning uchun ularning ishini tajribali advokat bilan birgalikda sinchkovlik bilan ko'rib chiqish talab etiladi.

Garov puli bo'yicha yordam

Agar sizga nisbatan garov puli tayinlangan bo'lsa-yu, lekin uni to'lashga qurbingiz yetmasa, immigrantlarga va ularning do'stlari yoki oila a'zolariga garov pulini to'lashda yordam beradigan notijorat tashkilotlar tomonidan garov pulingiz (qisman yoki to'liq) to'lab berilishi uchun ariza topshirishingiz mumkin. Quyida ba'zi manbalar keltirilgan:

The Envision Freedom Fund



Ular garov puli bo'yicha murojaatlarni qabul qilayotganini bilish uchun tashkilotning veb-saytiga tashrif buyuring:

<https://envisionfreedom.org/get-support/#reach-out>

The Black Immigrants Bail Fund



Ularga blackimmigrantbailfund@gmail.com elektron pochta manzili orqali xabar yuboring



Ularning veb-saytidagi so'rov shaklini to'ldiring:
<https://www.blackimmigrantsbailfund.com/>

The LGBTQ Freedom Fund



Ularga info@lgbtqfund.org, elektron pochta manzili orqali xabar yuboring,



Ularning veb-saytiga tashrif buyuring:
<https://www.lgbtqfund.org/>



786-233-8969 raqamiga qo'ng'iroq qiling

**Hozir yana
nima qilishim
kerak?**





Agar siz yoki boshqa birov immigratsiya xizmati tomonidan amalga oshirilgan hibsga olishning bevosita guvohi bo'lgan bo'lsangiz, **do'stingiz yoki oila a'zongiz hibsga olinganida va ushlab turilganida sodir bo'lgan barcha voqealarni yozib qo'yishingiz kerak.**



Eslay olganingizcha batafsil yozing va **har qanday ashyoviy yoki fotosuratli dalillarni to'plang.**

Qaydlar:

www.nyc.gov/knowyourrights

Eng so'nggi ma'lumotlarni olish uchun:



- Telefoningiz kamerasini quyidagi QR-kodga yo'naltiring va bir necha soniya ushlab turing.
- Ma'lumotlarga kirish uchun ekranda paydo bo'lgan xabarnomaga bosing.

